

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 8 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Baxranov Sherzod*

|                                                                                                                                                                       |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ<br>MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK<br>ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI ..... | 10-16 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

|                                                                                            |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING<br>TRANSFORMATSION JARAYONLARI ..... | 17-21 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

|                                                                                                |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY<br>JARAYONLARIGA TA'SIRI ..... | 22-30 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Raxmatov Mirjon*

|                                                                   |       |
|-------------------------------------------------------------------|-------|
| BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN ..... | 31-38 |
|-------------------------------------------------------------------|-------|

*To'xtasinov Mira'zam*

|                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------|-------|
| SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI ..... | 39-42 |
|-------------------------------------------------------------------------|-------|

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

|                                                           |       |
|-----------------------------------------------------------|-------|
| DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... | 43-48 |
|-----------------------------------------------------------|-------|

*Azgarov Abdumutalib*

|                                                                                               |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA<br>QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI ..... | 49-56 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

|                                                                                          |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE:<br>INTERNATIONAL EXPERIENCE ..... | 57-60 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Otabekov Javdod*

|                                                                                                                                        |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI"<br>IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI ..... | 61-68 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

|                                                                                                                                |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI<br>TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH ..... | 69-74 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Uralov Temur Boxodir o'g'li*

|                                                                                                                              |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUIJATLASHTIRISH<br>VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 75-81 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Samandarov Og'abek*

|                                                                                   |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-------|
| ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL<br>MODELINING AHAMIYATI ..... | 82-86 |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-------|

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yuldashev Rustam Daniyrovich*

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT

RIVOJLANISHIDAGI O'RNI ..... 87-93

*Adilov Zafar Yunusovich*

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L ..... 94-98

*Berdikulova Surayyo Aslamovna*

IJTIMOY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI ..... 99-104

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI ..... 105-113

*Yarbaev Xasan Xazratqulovich*

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:

MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL ..... 114-118

*Maxsudjonov Kamronjon*

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA

TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI ..... 119-123

*Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:

IJTIMOY-FALSAFIY YONDASHUV ..... 124-128

*Otaqulov Elyor Madiyrovich*

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI ..... 129-136

*Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR ..... 137-141

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Niyazov Ravshan Turakulovich*

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR

XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI ..... 142-148

*Yunusova Xilola Ravshan qizi*

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI

"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA ..... 149-154

*Absalamova Gulmira Sharifovna*

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING

NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA ..... 155-158

*Dadajanova Aziza Karimullayevna*

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:

A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE ..... 159-170

*Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI

RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)

ERTAGI MISOLIDA ..... 171-175

*Babajanova Iqbol Salomaddinovna*

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

|                                                                                                                                                                                                          |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>To'xtayeva Sarvinoz</i><br>DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI .....                                                                                                          | 181-184 |
| <i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i><br>TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM<br>MANBALARI QIYOSI .....                                                                             | 185-189 |
| <i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i><br>CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING<br>IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY ..... | 190-195 |

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

|                                                                                                                                                           |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>O'rinboyev Rustamjon</i><br>A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES<br>OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA .....                            | 196-206 |
| <i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i><br>YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI .....                                                                         | 207-212 |
| <i>G'ofurova Dilafruz</i><br>AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING<br>KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ..... | 213-218 |
| <i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i><br>PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI<br>BARTARAF ETISH MASALALARI .....                         | 219-223 |
| <i>Juraeva Asal</i><br>OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....                                                                              | 224-228 |
| <i>Ходжаева Шурин</i><br>ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ<br>СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ .....      | 229-239 |
| <i>Imomniyozov Doniyorbek</i><br>SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:<br>IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR .....                   | 240-250 |
| <i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i><br>XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:<br>SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN .....          | 251-254 |
| <i>Суннатиллаева Сарвиноз</i><br>АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И<br>КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА .....           | 255-262 |
| <i>Anarbayev Eldor</i><br>KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....                                                               | 263-269 |
| <i>Ibrohimov Azimjon</i><br>KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:<br>XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK .....                                            | 270-278 |

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

|                                                                                                                                  |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i><br>RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,<br>SHAKLLARI VA VOSITALARI ..... | 279-285 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|



|                                                                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Safarova Nigora Nasilloevna</i><br>TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI<br>VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....                                                                     | 286-293 |
| <i>Muxammadjonov Muslimbek</i><br>OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...                                                                                                                           | 294-302 |
| <i>Khabibullaeva Dilshoda</i><br>FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING<br>CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....                                                                                                        | 303-309 |
| <i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i><br>INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI<br>RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....                                                                               | 310-314 |
| <i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i><br>BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY<br>TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....                                                                                     | 315-320 |
| <i>Sattoriy Shohruh</i><br>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT<br>QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                               | 321-325 |
| <i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i><br>TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA<br>KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....                                                                                           | 326-331 |
| <i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i><br>"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY<br>HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING<br>TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI ..... | 332-336 |
| <i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i><br>TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE<br>"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE<br>"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT" .....                            | 337-341 |

**Received:** 20 July 2025  
**Accepted:** 5 August 2025  
**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

## THE STUDY OF ETHNONYMS IN WORLD AND UZBEKISTAN LINGUISTICS

**To'xtayeva Sarvinoz**

TerSU FO'T 3rd year student

**Scientific supervisor:** Doctor of Philosophy (PhD) in Philology Dilrabo Ergasheva

**Abstract.** In this article, ethnonyms and their origin were analyzed based on the oldest sources and examples were given. The necessary sources within this topic were considered and detailed conclusions were drawn. Since the chosen topic is still widely studied by researchers, the newest and oldest sources were analyzed comparatively, and scientific works on this topic were also considered.

**Keywords:** Kung'irat, Uyghur, Mahmud Kashgari, Abulgozi Bakhodir Khan, ethnonymy, tribe, clan, linguistic views, genealogy, ethnography

## DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI

**To'xtayeva Sarvinoz**

TerDU FO'T 3-bosqich talabasi

Email: [sarvinoztuxtayeva04@gmail.com](mailto:sarvinoztuxtayeva04@gmail.com)

**Ilmiy rahbar:** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dilrabo Ergasheva

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada etnonimlar va ularning kelib chiqishi eng qadimgi manbalar asosida tahlil qilindi hamda misollar keltirildi. Aynan shu mavzu doirasidagi kerakli manbalar ko'rib chiqildi va atroflicha xulosalar chiqarildi. Tanlangan mavzu shu bugunga qadar ham tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilayotganligi sababli eng yangi va eng qadimgi manbalar qiyosiy tahlil qilindi, bu boradagi qilingan ilmiy ishlar ham ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** qo'ng'iroq, uyg'ur, Mahmud Koshg'ariy, Abulgozi Bahodirxon, etnonimiya, qabila, urug', lingvistik qarashlar, shajara, etnografiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N28>

Turkiy tillar etnonimiyasini, jumladan, o'zbek tilidagi qabila, urug' nomlari va ularning tasnifi, kelib chiqishi, tarmoqlari, ya'ni shoxobchalarini o'rganish bo'yicha o'zbek hamda jahon tilshunosligi bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xalq, millat, qavm va urug', qabila nomlari etnonim hisoblanadi. Etnonimlar har bir davrda ma'lum bir hududda yashab kelayotgan etnik guruhlar haqida ma'lumot beruvchi lisoniy birlik sanaladi. Etnonimlarning o'rganilishi ancha avval boshlangan. Bu jarayonda etnonimlar nolingvistik nuqtai nazardan kelib chiqqan holatda ikki xil yo'nalishda o'rganilganini ko'rish mumkin. Birinchi yo'nalishda etnonimlar asarlarda shunchaki tilga olingan va alohida uning mazmuni, kelib chiqishiga to'xtalib o'tilmagan. Ikkinchi yo'nalishda esa ba'zi etnonimlarning mazmuni va kelib chiqishiga alohida to'xtalishgan hamda ba'zan rivoyat yoki hikoyalar, afsonalar vositasida keltirilgan ma'lumotlar ma'lum ma'noda dalillanganini ko'rish mumkin.

Har qanday xalq, millat, urug', qabila borki, ular o'z nomiga ega. Kishilik jamiyatidagi eng dastlabki etnik birlik bu urug'dir. U, dastlab qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan. Bir necha

ota-onadan tarqagan avlodlar o'zaro urug'lar hisoblanadi. Urug' jamoalari kishilik jamiyatining ibtidoiy to'da davridan keyin shakllangan. Qon-qarindoshchilikka asoslangan har bir urug' a'zolari bir- birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy jihatdan o'zaro bog'langan [1.159].

Qadimgi afsonalardan biri bo'lmish "O'g'uznoma" dostonida ham bir necha qabila va urug' nomlari bilan bog'liq o'rinlarni ko'rish mumkin. "Asar tilida qadimiy turkiy qavmlar nomi ko'p uchraydi. Bunga misol sifatida **Qang'li urug'**ining nomini aytib o'tish mumkin. Qang'li turkiy xalqlarning miloddan avvalgi asrlarda shakllangan qabilalaridan biridir. Afsonada bu nomning kelib chiqish sababi quyidagi voqea bilan izohlanadi: *"Jurjit xoqonining xalqi O'g'uz xoqonga qarshi turadi. Urush boshlanadi. O'g'uz xoqon g'alaba qiladi. Jangdan so'ng O'g'uz xoqonning qo'shini shunday katta o'ljaga ega bo'ladiki, ularni yuklashga, olib ketishga ot, xachir, ho'kiz kamlik qiladi. O'g'uz xoqonning qo'shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bo'ladi. U bir arava yasaydi. Arava ustiga o'lik o'lja (mol- mulk)ni yuklaydi, aravaga esa tirik o'lja (asir)ni qo'shadi. Navkarlarning hammasi buni ko'rib, ular ham aravalar yasaydilar. Aravalar yurganda "qang'a, qang'a" degan ovoz chiqaradi. Shuning uchun ularga qang'a deb ot qo'ydilar. O'g'uz xoqon aravalarni ko'rdi, kuldi. Aytidiki, o'lik (mol)ni tirik*

*(mol) tortib borsin. "Qang'alug'" senga nom bo'lsin, "qang'a" senga nishon bo'lsin, seni bildirsin"* [2.120].

Turkiy etnonimlarning o'rganilishi bo'yicha ilk ilmiy manbalar va ma'lumotlar sirasiga Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" (XI), Rashididdinning "Jome at-tavorix" (XIV), Abulg'oz Bahodirxonning "Shajara yiturb", "Shajarayi tarokima" asarlari kiradi. Mazkur asarlarda turkiy etnonimlar masalasi ancha kengroq yoritilgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit-turk" asarida etnonimlarni lug'at tarkibida berar ekan ularning ma'nolari, ayrim o'rinlarda kelib chiqishi, yashash hududi kabi ma'lumotlarni ham uchratishimiz mumkin. "**O'g'uz** – turklarning bir qabilasi. O'g'uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir. Ularning har birining maxsus belgilari, mollariga mos tamg'alari bordirkim, urug'larni shu tamg'alariga qarab ayiradilar" [3.36]. O'g'uzlar haqidagi ushbu ma'lumotdan keyin M.Koshg'ariy qabila tarkibiga kiruvchi urug' va ularning tamg'alarini keltirib o'tadi. Asar turkiy etnonimlarni o'rganish bo'yicha muhim hamda ilk ilmiy manbalardan biridir. "Devonu lug'atit turk" asosida tuzilgan indeks-lug'atda 78 ta etnonim berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asarda turkiy qabila va urug'lar hamda ularning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar bisyor. Asar orqali biz qabila nomlarining asl negizlari qay yo'sinda paydo bo'lgani haqida ham tushunchalar bilan tanisha olamiz. Bu esa bizga etnonimlar tasnifi uchun yordam beradi. Qabila va urug' nomlarining kelib chiqishi turli jarayon hamda hodisalarga, ma'lum ashyo yoki insonlarga borib taqaladi. Bu esa etnonimiyaning etimologiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Keyingi davrlarda ham ayrim asarlarda etnonimlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bu ma'lumotlar qabila urug' nomlarining kelib chiqishi, qo'llanilishi bo'yicha muhim manbalardan hisoblanadi. XVII asrda yozilgan Abulg'oziy Bahodirxon qalamiga mansub "Shajarayi turk" asarida etnonimlar va ularning kelib chiqishiga doir ma'lumotlar bisyor. Shu boisdan ham mazkur asarning bu sohada qiymati o'zgacha. "Shajarayi turk" asarida qarluq, uyg'ur, tirkin (makrin), qirg'iz, kamkamchut, o'rmanqit, tatar, o'yrot, tumat, nayman, kirayt, ungut, turqaq, xitoy, mo'g'ul, markit, qo'ng'iroq kabi bir necha urug' nomlari haqida aytib o'tilgan. Bu el, qabila va urug'larning kelib chiqishi, joylashgan hududi va nomlariga doir ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, **uyg'ur eli** haqida shunday deyilgan: *"Uyg'urning ma'nosi yopishkur temak bo'lur. Ayturlar sut uyudi. Sut erkaninda biri birindin ayrilur. Uyg'andin so'ng ayrilmas. Uyudi ya'ni*

yopushti. Taqi ayturlarkim imomg'a uydum. Imom o'ltursa o'ltura turur, tursa tura turur, bas yopishqani bo'lur. Andaq ayta tururlar kim Mo'g'ul yurtinda ikki tog' bo'lur. Uzuni kun tug'shadin kun botishga benihoyat ulug' tog'lar turur. Birisining oti To'qratabuzluq va taqi birining oti Uskunluq. Tangrim bu ikki tog' orasinda, Mo'g'ul yurtining kun botishinda- taqi bir tog' bor turur. Ani Qut tog' derlar. Bu aytilgan tog'larning orasinda bir yerda oqaturg'an o'n soy bor turur. Bir yerda to'qquz soy, barchasi ulug' suvlar turur. Qadim uyg'ur eli shul soylarning orasinda o'ltururlar erdi" [4.32] Bunda nafaqat uyg'ur xalqining nomi to'g'risida, balki ularning yashash hududi haqida ham ma'lumotlar uchramiz. Keyingi satrlarda esa uyg'ur xalqining bo'linishi, ularning tarixiga doir muhim o'rinlarni uchramiz.

O'zbek xalqi urug'lari ichida katta qismni tashkil etuvchi qo'ng'iro't eli haqida ham asarda uchratishimiz mumkin. Asar tilida qo'ng'iro't so'zi "qo'ng'irat" holida uchraydi. Bu esa XVI asrda bu etnonimning qay shaklda talaffuz etilgani va bizgacha qanday jarayonga kelib o'zgarganini ko'rsatadi. "Shajarayi turk"da Abulg'oziy Bahodirxon **qo'ng'iro'tlar** haqida shunday deydi: "Qayon naslindin bir kishi bor erdi. Aning uch o'g'li bor erdi. Avvalg'ining oti Cho'rlik mergan, ikkinchisining oti Qubayshira, uchinchisining oti Tusbuday. Cho'rlik anday otar erdi o'qni kim, bir kun inisi Qubayshira birlan urushti. Ikkisi xam ot ustinda erdi. Yoyin olib o'kin kezladi. Qubayshira engashib boshini otning bo'ynig'a panoh qildi. Bir zamon turg'andin so'ng, boshini ko'tardi. Cho'rliq inisini ayadi. Taqi ko'ng'lindin aytdi: "Muni andag' otayin qo'rqsun, ammo zarar topmasun". Quloqinda ulug' halqasi bor erdi. Ani qasd qilib otdi. O'q halqaning ichindin o'tub ketdi. Cho'rliq merganning bir o'g'li bor erdi. Qo'ng'irat otli. Barcha Qo'ng'irat eli aning nasli tururlar"[4.38] Asar tili sodda va tushunarli. Bundan tashqari asarda faqat tarix bilan emas, balki boshqa sohalarga doir ham ma'lumotlar mavjud. Shu boisdan asar juda qimmatlidir.

Keyingi davrlarda ham etnonimiya sohasida bir qancha izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, XX asrga kelib bu sohada qilingan tadqiqotlarning salmog'i orta bordi. Bu tadqiqotlarning katta qismi tarix bilan aloqadordir. Rus olimlari XIX-XX asrlarda O'rta Osiyoni har tomonlama o'rganish maqsadida deyarli har bir soha bo'yicha izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, turkiy etnonimlarni o'rganish, tahlil qilish jarayoni boshlandi. Turkiy qabila, urug' nomlarini o'rganish ishiga XIX asr rus sharqshunoslaridan N.Xanikov, A.P.Xoroshxin, V.V.Radlov, N.A.Aristov, D.N.Logofet, H.Vamberi sezilarli hissa qo'shgan. Bu izlanishlar XX asrda yana ham jadal tarzda davom etdi. Bu davrda bir qator rus tarixchi va etnograf olimlari turkiy etnonimlarni o'rganishga o'z hissalarini qo'shishdi. Masalan, V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Y.Yakubovskiy, L.V.Oshanin, Yu.Sokolov, S.P.Tolstova, S.M.Abramzon, A.A.Volitova, V.G.Moshkova, G.I.Karpov va boshqa olimlar etnonimlarni o'rganish bo'yicha qator izlanishlar olib bordilar. Bu tadqiqotlar davomida etnonimlarning kelib chiqishi, tarixi, qabila va urug'lar bilan bo'lgan voqea-hodisalar, ayrim urug'larning yo'qolib ketish sabablari to'g'risida ham ma'lumotlar to'plandi.

Etnonimlar bo'yicha tadqiqotlar o'zbek tarixchi va etnograf olimlari tomonidan ham amalga oshirildi. M.Yo'ldoshev, I.Jabborov, M.A.Abdurahmonov, A.R.Muhammadjonov kabi o'zbek olimlarining ham bu borada hissaları katta. Bu olimlar o'zbek etnonimlari tarkibi, qatlamlari, qabila urug' nomlari, tarixi, o'zbek xalqining shakllanishiga asos bo'lgan etnonimlar, ma'lum bir urug' va qabilalar etimologiyasi va boshqa jihatlariga oid ma'lumotlar to'plab tahlil qilishdi. Bu ishlarning barchasi tarix va etnografiya sohalari doirasida amalga oshirildi. Keyinchalik, 1930-yillarga kelib esa tilshunos olimlar tomonidan ham o'rganila boshlandi. Dastlab G'ozii Olimning kuzatishlari natijasi o'laroq "O'zbek lahjalari tasnifida bir tajriba" nomli

risolasi yuzaga keldi. So'ngra S.Qorayevning "Etnonimika" risolasi, X.Doniyorovning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" kitobi, A.Otajonovning "Xorazm etnotoponimlari va ularning lug'aviy asoslari", A.Turobovning "Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili" nomli dissertatsiyalari kabi izlanishlar mavjud. G'ozli Olimning yuqorida tilga olingan asarida o'zbek etnonimlaridan 40 tasi haqida ma'lumotlar beradi

Etnonimlarni til jihatidan o'rganish bo'yicha muhim manbalardan biri X.Doniyorovning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" 8 kitobidir. Mazkur asarda Doniyorov etnonimlar va ularning til xususiyatlari, shevalar bilan o'zaro aloqasi kabi jihatlariga to'xtalib o'tadi. X.Doniyorov o'zidan oldingi ishlarni ham o'rganib chiqadi. Olimning bu asari etnonimlarning tilshunoslikka bog'liq tomonlarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. O'tgan asrning 20-yillarida aholi ro'yxati natijasida O'zbekiston aholisining urug'-qabilalari to'g'risida, mukammal materiallar to'plandi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi.

Keyingi yillarda etnonimlar, etnotoponimlar ustida bir qancha izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, hali bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar bisyor. Etnonimlarni lingvistik jihatidan tahlil qilishga mo'ljallangan ishlardan yana biri. Marqayevning "O'zbek tili etnonimlarining lisoniy tahlili" mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyasidir. Bu dissertatsiyada ham olim o'zidan oldin qilingan ishlar, etnonimlarning grammatik va leksik-semantik xususiyatlari kabi bir qator jihatlariga to'xtalib o'tgan. Tahlilga tortish jarayonida turli manba va ma'lumotlardan foydalangan. K.Marqayevning mazkur tadqiqoti etnonimlarni lingvistik jihatdan o'rganish va tadqiq qilishda ahamiyatlidir. Chunki olim o'z ishida qabila va urug' nomlarining grammatik xususiyatlariga ham to'xtalib o'tadi. Bugungi kunda xuddi shu kabi ilmiy lingvistik tadqiqotlar zarur. Chunki etnonimlarni o'rganish, ularning til imkoniyatlarini tadqiq etish orqali qadimgi davr tili haqidagi qarashlar, nazariyalar ortadi. Etnonimlarning katta qismi sof turkiy leksikalardan tashkil topgan. Bu esa etnoslarning turkiy til tarixi bo'yicha muhim obyekt va manba ekanligini ko'rsatadi. Shu bois etnonimlar va ularni tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kurbanazarova N. Qo'ng'iroq etnonimi etimologiyasiga oid ba'zi mulohazalar.// - "Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti" jurnali, 2024.5-son
2. Y.Saidov "O'zbek adabiy tili tarixi" – Toshkent-2021
3. M. Koshg'ariy – "Devonu lug'atit turk" –G'afur G'ulom/2017
4. Abulg'oziy Bahodirxon – "Shajarayi turk".- Toshkent/Cho'lpon-1992
5. G'ozli Olim. O'zbek lahjalari tasnifda bir tajriba. Toshkent: Fan, 1936.
6. Doniyorov. X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
7. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2006.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 8 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).